



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-rasqat bilan qayta ro'yxatga olingan.

### Maksum son.

#### Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jahbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANTYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'qin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulkumor MIRZAYEVA  
Qozogboy YO'LDSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinsobasi)

#### Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

#### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

#### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliya MUSURMANOVA

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til.adabiyot@ymail.uz  
web-sayt: www.tiladabiyot.uz

Jurnanal "kor'erb" bosqich masjulalar "Til va adabiyyot ta'limi" nomi olindi, deb ishlashdi sharoit.

Jurnanal nashr etilgan maqoladagi muddatlarining tahririyat mas'ifi nazariga rasvolf qelmaydigan fikr-murozalar bo'shishni munton.

Tahririyats kelgan qo'slyozmalarni taqsim qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaqa 2022.25.06. da topshirildi. Ofis usulida cheq etildi. Qo'shichini 678x41.5. Sharid bosma fabriq 6.0. «Atala» gamitmasi. 10, 11 kog'. «ECO TEXTILE PRODUCTS» MCHJ bosmaxonasasi chiq etildi. Manzil: Toshkent sh. Minrob tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Burtiyuma — Adadi 200 masha. Bahos keleshigilan mardu.

# 1991-yildan chiqsa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

## LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

ДІПЛОДАВАНІС  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

#### MUNDARIJA

Gafurjon MUXAMEDOV. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti ..... 5 yoshda

#### DOLZAR MASALA

Rayxon RASULOVA. Og'zaki va yo'zma nutq – komilki belgisi

#### ILGOR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi ..... 7

Sarvinoy Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish

ko'nikinosini shaklantirishning pedagogik-psixologik omillari ..... 8

Ruxsora Murodova. ona tilli tilimida nostandart testlardan foydalanan usullari ..... 11

Tojixon Sabitova. Maqolar hadiyatiga doir ..... 12

Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qabronmlar ruhiyati va tasvir mustaclaridagi ..... 14

#### TAHLIL

Mohizor No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetining semantik-stilistik xususiyatlari ..... 16

Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya ..... 18

Nilufar Ataqlouva. O'tkir Hoshimov ijdida obzor yaratish mahorati ..... 20

Umida Shermatova. Tabaqalishitirilgan adabiyot tilimida binar mu'ruza metodi ..... 22

O'tkir Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq – bebaho ma'naviy boylik! ..... 26

Adiba Davlatova. So'zning as ma'nosi – sho'irning as dardi ..... 28

Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi – jamiyat masalasi ..... 28

Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyining dramalarida monologik nutqining o'rni ..... 30

Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Choriyeva. Dramatik asarakarda maskon, zamon va basdiri tilining komparativ qirralari ..... 32

Bahoray Shishmanov. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiyi tahlili ..... 34

Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid qazishlar, tabillar va takliflar ..... 36

Gulshodurak Tojibeyova. Abdulla Qodiriy va zamordoshlari ijdida ayollar obrazining mushtarak jihatlari ..... 38

Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurbanbi" hikoyasida psixologik tasvir ..... 40

Musajon Tadjibayev. Germenevitkada psixologik talqin muammolari ..... 42

#### TADQIQAT

Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn ..... 44

Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari ..... 46

Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ioda etishda ritm va maxzumun uyg'uniqligi ..... 49

Arofatoy Maydinova. O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti vakillari ijdida

muvashishshasi san'ati ..... 51

Mohigul Mavlonova. "Farhad va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini ..... 53

Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiy ijdasi ..... 55

Ra'ma Kayrullahova. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish,

nutqini o'strish yo'llari va vazifalari ..... 58

Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari ..... 60

Abdishukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektacl so'zlar ..... 63

Rahmatilla Norbekov. Munlig' qalbar kuchisi ..... 65

#### KICHIK TADQIQAT

Qodirjon Mo'yinov. Sud nutqi leksikasidagi o'zlashtims so'zlar ..... 67

Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini

tarixsiy jarayon zamridagi o'rGANISH mahorati ..... 69

Xosiyat Abdullaqhorova. Mustaqil so'z turklaridagi antisemik

musnabatasining ifodalishishi ..... 70

Dildora Yorbulova. Hamza Hakimzoda niyoziyining ashulalarida xotin-qizlar mavzusi ..... 72

Aziza Avezova. Alisher Navoiy "Turkiylar choseri" mi? ..... 73

Nodira Xoliqova. Millat va jamiatning badiy i'kkosi ..... 76

Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi – "xamsa" metodidan foydalanan usullari ..... 78

Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyining she'riyatiда erk va bilim talqini ..... 80

ko'nikmalari bilan tanishdik. Milliy darsliklarimizda ham matn va lug'atlar bilan ishlash darslari fanga ajratilgan soatlarning salmoqli qismini egallaydi. Matnlar mavzu jihatidan rang-barang. Har bir matnga mos ravishda mashq va topshiriglar tizimi ustida ishlash zarur. 5-, 8- va 11-sinfda berilgan matn va lug'atlar ustida ishlash darslari ancha takomillashib, dunyo standartlari talablariga yaqinlashgani quvonarli hol. Shu o'rinda ayrim mulohazalarimizni bildirib o'tishni joiz deb hisoblaymiz:

1) eng avvalo, matn uchun milliy adabiyyotimiz durdonalari sanalgan badil asarlardan yaxlit, tugal ma'nog'ega bo'lgan qismini tanlab olish zarur;

2) matn mavzulari o'quvchini qiziqtira olishi va yan-gilik ulashishiga alohida ahamiyat berish lozim;

3) matlarning mazmuni turli fan doiralarini qamrab olmog'i, integratsiyalashgan ta'limga yo'naltirilgan bo'li-shi kerak;

4) matn doirasida berilgan lug'atlar soni va sifatiga alohida ahamiyat berish shart. O'rganilan yangi so'zlar o'quvchining faol lug'ati tarkibidan joy olishiga erishish ona tili'mi oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi;

5) berilgan matn doirasida o'quvchilarini mantiqi-yi fikrlashga, mustaqil izlanishga majbur qiluvchi savol va topshiriglar tizimini ishlab chiqish darkor;

6) grammatik qoidalarga mos misollar ham matn strukturasi va semantikasidan kelib chiqib berilishi kerak. Bu holatda o'rganilayotgan matn va grammatic nazariya asosida o'quvchining ham matn mazmunini, ham nazariy ma'lumotni eslab qolishi osonlashadi.

Shu o'rinda amalda qo'llanilayotgan 9-sinf ona tili

darsligidan o'rın olgan 7 ta matn va lug'atlar bilan ishlash darslarining deyarli barchasida mashq va topshiriglar yaxlit matn doirasida emas, balki alohida olinigan mikromatnlar asosida tuzilganiga guvoh bo'lamic. Ularning ayrimlarda hatto matn berilmagan. Badil asarlardan alohida parchalar gap holida o'quvchiga havola etiladi. O'quvchining mantiqi-yi fikrlashi va kognitiv bilish doirasini kengaytirishga yo'naltirilgan topshiriglar deyarli mavjud emas. Asosiy urg'u nazariy qoidalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Ayrim savollarni takror holatda qo'llanigan.

Xulosa qilib aytilish mumkinki, matn va lug'atlar us-tida ishlash darsida asosan mashqlar va topshiriglar matn yuzasidan berilishi va o'quvchini mustaqil faoliyatga undashi muhimdir. Birgina misol, 2-darsda berilgan 3 ta matnning biror yerida "tafakkur" so'zi uchramaydi. [6: 7] Lug'at sifatida esa faqar "tafakkur" so'zinig ma'nolarini berilgan. Bu yoshdag'i o'quvchilarga *mukammal, voyaga yetmoq, fojia, umr, zoye ketmoq, ilmiy ish yoqlamoq* kabi matn tarkibida berilgan, o'quvchi psixologiyasiga ta'sir etuvchi so'zlarning ham izohini tush-untilish, bu so'zlarning zamiriga yashirinigan ma'nolarini o'quvchining qalibiga joylash kerak. Ularda umrning bebabaho ne'mat ekani va undan oqilona foydalinish, har bir o'tayotgan onning qadriga yetish hissini shaklantirish, o'z hayoti va o'zgalar taqdiri uchun mas'uliyat, daxidirish, tuyus'ini tarbiyalash berilgan matn oldiga qo'yilgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunday darslarda o'quvchilar nafaqat ta'limiy va tarbiyaviy, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z-o'zida tarbiyalashi muhim sifat sanaladi.

#### Foydalananligan adabiyyotlar

1. NCERT Book, Class 8, English. Chapter 1.
2. Shabanov D. Chet tilni o'qitish metodikasi va zamonaliv texnologiyalar. – Toshkent, 2009.
3. Doç. Dr. Mustafa Isen, Yrd. Doç. Dr. Leyla Karahan, Dr. Kümil Akarsu. Türkçe Orta okul 2. – Ankara, 1994.
4. uz.alinks.org
5. Ziyamuxamedov J. Xitoy til o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDSNI, 2020.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumta ilim mifiktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2014.

#### Gulshodaxon TOJIBOYEVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
Gumanitar fanlar fakulteti 2-bosqich magistranti

## ABDULLA QODIRIY VA ZAMONDOSHLARI IJODIDA AYOLLAR OBRAZINING MUSHTARAK JIHATLARI

Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligi asoschisi, o'zbek adabiyyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk shoir va yozuvchi, dramaturg va publisist. U buyuk qalamnoma-vis bo'libgina qolmay, haqgo'y va haqiqatparvar inson edi. Uning asarlari o'zbek xalqiga hayotiga bag'ishlangan. Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil Toshkentda ba-

davlat savdogar oиласида tug'ilgan. Yoshlik va o'smirlik yillardagi muhit savdogarlar, boylar va kambag'al dekorator, iqtidori hunarmandlar, doim muhtojlikda kun kechiruvchi kosiblar va yersiz dehqonlardan iborat bo'lgan. Ushbu mehnatkash odamlar dunyosi, shuningdek, shahar ziyyolilar bo'lajak yozuvchi shakllanishida

muhim o'rın tutdi. Abdulla Qodiriy yoshiligidan uzoq umr kechirgan (102 yil umr ko'rgan) va ko'pni ko'rgan otasining hikoyalarini tinglab, undan sezgir kuzatuvchanligini keni meros qilib olgan. Uning otasi bog'dorchilikni juda yaxshı ko'rgan, shu sababli Qodiriy o'zini bog'bonning o'g'liman, deya e'tirof etadi. Abdulla Qodiriy avvaliga muslimon maktabida (1904–1906), keyin rus-tuzem maktabida (1908–1912) o'qib, muvaffaqiyatlari yakunlaydi. 1912-yilga kelib, Abdulla Qodiriyning birinchi adabiy tarjibalarini boshlanadi. O'zining ilk nashr etilgan asarları – "Xotinboz" (1915) va "Baxtsiz kuyov" (1915) hikoyalarida eski o'zbek turmushchi chizqularini hajiyonna ifodalangan. 1915–1917-yillar Qodiriy Abdul Qosim madrasasida arab va fors tillarini astoydil o'rganadi. Yozuvchining inqilobdan avvalgi asarlarida jadidchilik ta'siri sezildi.

Abdulla Qodiriy o'z xalqining hayotini birovlar orgali va kitoblardan bilgan emas, u bevosita odamlar bilan suhabat qurib, ularning alohida jihatlarini o'ziga singdirgan. Maktab va madrasada tahsil olib yurgan yillari Navoly. Lutfiy, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Fitrat va boshqa o'zbek adabiyoti mumtoz ijodkorlarining asarlarini mutolaasi bilan qiziqidi. Ushbu o'ziga xos yozuvchi ikki asr bo'sag'asida – mukammal, qarama-qarshi, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy iktiroblarning notinch davrida shakllangan. Altibta, bu davrlar uning asarlarida ham qarama-qarshi, ijtimoiy va tumush xurofotlaridan erkin bo'lmagan sezarilar iz va dunyoqarash qoldirdi. Umuman olganda, Abdulla Qodiriyning adabiy izlanishlari doimiy ko'tarilishlar, ajoyib ijodiy silqishlar bilan belgilanadi. Qodiriyning ijodiy javohiri – "O'tkan kunlar" (1926) va "Mehrobdan chayon" (1929) tarixiy romanlari o'zbek adabiyoti tarixi mavzusidagi ilk asarlaridir. Abdulla Qodiriyning tarixiy mavzuga bo'lgan qizqishi o'z xalqining o'tmishini tushunishga bo'lgan intilishi, uning sabri, mehnatkhiligi, xalqning ozodlik va mustaqilлик sari qahramonona kurashi bilan izohlanadi.

1961-yil rus tilida chop etilgan "Mehrobdan chayon" romanining o'ziga xos xususiyallaridan buri shundaki, yozuvchi o'zbek xalqi hayoti va tarixini, davr ranglarini yorqin va sidqidildan ifoda etib bera olgan, qahramonlar fe'l-atvori XIX asming 40-yillariga xos sharoitlarda ochib bera olgan. Bu bilan Abdulla Qodiriy o'zbek tarixiy romannavisligiga asos soladi. O'zining "Mehrobdan chayon" romanida yozuvchi haqiqat yo'naliishi an'analavrini sezarilar boyitgan, qahramonlarning psixologik shakliga muhim hissa qo'shgan, insонning ichki dunyosini ifoda etishning yangi usullarini ochgan, qahramonlarning fe'l-atvori o'zgarishini ko'rsatib bergan. "Mehrobdan chayon" romanı – ikki asr bo'sag'asidagi Turkiston jamiyatining ijtimoiy, axloqiy hayoti haqidagi ro'y-ro'st asar. A.Qodiriy xalqning feodal tuzumdagagi hayot tarzinining o'ziga xos mohiyatini ochib berishga intilgan, hukmdorlarning ishlari va fe'l-atvorni ko'rsatadi. Ushbu ziddiyatlar tantanavor emas, ular qahramonlarning o'gir turmushidan kelib chiqadi – Abdurahmonninin ayolini o'ziga bo'yusundirish istagi va Shohidbekning fitnalariga qaramay, Anvar va Ra'no bir-birini chinakam sevadi va oila qurishga harakat qiladi.

Go'zallik, halollik, olijanoblikkha intiluvchi Ra'no fe'l-atvoriga xos – samimiyyat, toza niyatli, ma'nana sodda va ochiq qiz ko'rinishida namoyon bo'ladi. U Avarni toza, yorqin sevgi ila beg'araz va sadoqat bilan yaxshi ko'radi. Anvar – mardilik timsoli, adolatlil, cheskiz vijdon egasi.

Abdulla Qodiriy "Obid ketmon" qissasi, shov-shuvga sabab bo'lgan "Shirvonlik Mallaboy aka", shuningdek, o'zbek adabiyoti tarixiga sezilarli hissa qo'shgan boshqa ko'plab ocherka va hikoyalar muallifi. "Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotiga momaqaldiroq kabi kirib kelib, yorqin chaqmoq kabi barchanining e'tiborini o'ziga qaratdi", deb yozadi Izzat Sultanov.

Usbu so'zlarning haqqoniyigini qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov ta'kidlab, alohida qayd etadi: "Yoshligimizda Abdulla Qodiriy romanlarini berilib o'qir edik. Biq uning inson fe'l-atvorni yasash, bizgacha inson ehtiroslarining tug'yonini yetkazib berish mahoratidan hayratlanardik". O'zbek adabiyotida roman janrining asoschisi Abdulla Qodiriyning ko'plab asarlarini qator Sharq hamda MDH mamlakatlariida e'tirof oqozondi.

Yuqoridaqgi Ra'no obrazı, o'zbeklarning orzusidagi qizni gavdalantiradi. Uning ko'plab asarlarida ayollar obrazı o'ziga xo'slikini kasb etgan. Uning asarlarori orqali biz o'sha davr tarixini, ijtimoiy ahvolini, siyosiy jarayonlardan tortib eng kichik jabhalargacha ko'ra olamiz. Uning asarlarini shu qadar keng qamrovlik, uni o'qigan oddiy xalq ham, ziyoql qatlani ham o'ziga nimadir olo-ladi. Uning shunday yetuk asarlaridan biri "Diyor Bakr" hisoblanadi. Mazkur asardon o'rın olgan kichik maqola va hikoyachalarda Qodiriyning ichki dunyosi, xolis so'zi, jur'ati va insoniy burchi kabilar aks etadi, buni ziyrak kitobxon satralar orqali yozuvchining qalb og'rigalarini his qiladi. Bu jarayonda davr va turmush talabi inson ehtiyojiga, qarashlari hamda manfaati ekanligini ijodkorning kichik asarlarini asosida kuzatishimiz mumkin.

Ushbu asar 1910–1920-, 1930-yillardagi matbuot matni asosida tayyorlandi. Unda ayollar timsoli ham o'ziga xos. Asarda o'sha davr nafasi urfuri turadi. Xususan, "Juvonboz" asarida keltrilgan Soliha obrazı eriga vafodor ayol timsolini ko'zimiz oldida gavdalantiradi. U erining maktubini kutadi, maktub kelgach, o'zida yo'q sunyub ketadi. Lekin uning eri yaxshi, samimi inson bo'lgani bilan Solihaning farzandi besoqolboz bo'llib, taqdir uni farzandidan kuydiradi. Demak, o'sha davrda besoqolbozik jamiyat kushandasiga aylangan.

"Baxtsiz kuyov" asaridagi Rahima obrazı yorga vafodor, yori uchun o'z jonini fido qiluvchi ayollar timsolini gavdalantiradi. U yorining qiyin ahvolini ko'rib yuragi achishadi, yori uchun hatto o'z jonini fido qiladi. Bu asar qahramoni Rahimaning eri to'y orqasidan katta qarziga botib, qiyinchiliklar girdobida qoladi. Ana shu holat asarning asosini tashkil etadi. Undan tashqari, "Jinlar bazmi", "Uloqda" hikoyalarida ham ayollar obrazı uchradidi. Undagi ayollar sho'x, dard-g'amdan yiroqroq ayol obrazı sifatida gavdalananadi.

Abdulla Qodiriy asarlarida o'ziga xos obraz yaratgan ayollar – Kumush, Ra'no, Soliha, Habiba, umuman olganda, mard, jasur, yori uchun jonini berishga tayyor

kuchli ayollardir. Abdulla Qodiriy o'z asarlarida kuchsiz ayollarni tasvirlashdan ko'rma kuchli ayollarni tasvirlashga intilgan, chunki u o'zbek ayollarini ana shunday kuchli, matonatli bo'lismeni orzu qilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qodiriy asarlaridagi ayollar obrazi va Cho'lpone, Hamza asarlaridagi ayollar obrazlari bir-biridan farqlidir. Negaki, Qodiriy asarlaridagi ayollar obrazida huriqlik holdatlari kuzatilsa, Cho'lpone va Hamza asarlaridagi ayollar obrazida ayollarga o'tkaziladigan zug'um ko'plab uchraydi.

Cho'lponnинг "Kecha va kunduz" asaridagi Zebi timsolini oydinlashtiramiz. Zebining ilojsizligi o'sha davr ayollar ni erksizligi sifatida oshib beriladi. Zebi - hurkak ohu kabi go'zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o'yashla nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to'lib yotgan dunyoga muhabbat ko'zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go'zallik bilan kelishmaysidi, go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirga to'la hayot unsi sig'dirmaydi, hayotning shafqatsiz va badbo'y havosida uning nafasi bo'gildi va hayot uni ayovsiz taqdirdi hukmiga topshiradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari" asarida ayol obrazi sifatida Maryamni ko'rishimiz mumkin. U ilmga tashna madaniyatlari va ma'rifatli ayol timsoli sifatida gavdalangan. Ushbu asarda ma'rifati insonning jaholat va q'affat zindondagi fojiali taqdirdini ko'rshatishni maqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza "Turkiston maishatidan olingan qiz va kuyov fojasি" deb ataydi. Dramaturg pyesaning dashtlabki sahnasi dayoq qahramonlar o'zlariga munosib bo'lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko'rsatadi.

Avloniyning "Advokatlik osonmi?" dramasidagi ayol obrazi sifatida Mehriniso timsolinii ko'rishimiz mum-

kin. Mehriniso – 32 yoshli ayol. Eridan jabrlangan ayol obrazi. Mehriniso jabrdiyda ayollar timsoli. Mehriniso eridan jabrlangan ayollarning ma'naviy timsoli sifatida yoritiladi. U yordani so'rab Davronbekning yoniga keladi. O'n besh yildan beri zolim qol'ida majruhga aylanigan ayol o'z haq-huquqi uchun, shu insondan ajarash uchun harakat qiladi.

Mehriniso ayadek o'sha davr ayollar timsolinini boshqa asarlarida ham uchratishimiz tabliyi. Zebi timsolinini keltirsak ham, bunga dalil bo'la oladi. Mehrinisodan ham, Zebidan ham inon-ixtiyor so'ralmay, turmushga berib yuboriladi. Bunda ulami xuddi bir hayondek, quldek sobib yuborishgani inson qalbida g'alati hissiyot paydo qiladi. Zebidan ham, Mehrinisodan ham so'ramay taqdirdini hal qilishi, ular tanlagan taqdirda bu muştipherlar jabr tortadi. Bu asarlar organli ayollar erkinligi uchun harakat, ularning ixтиyorini o'ziga berish uchimligi jadidlar tomonidan ilgari suriladi.

Aylarning erk-ozodligi, ilm-ma'rifatga qiziqishi, ota-onasi ra'yidan chiqolmay taqdир hukmiga bo'yin egish asarlarida bir-biriga qarama-qarshi konflikt tarzda jadid adabiyoti mafkurasini yoritib bera oldi. Xususan, Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" asaridagi ayollar timsoli ham, Cho'lponnинг kichik-kichik hikoyalaridan tortib, katta janrdagi barcha asarlarida, barcha-barcha ma'rifatparvar ijdorlar ijdoda ayollar timsoli o'ziga xos mavzuga aylana oldi. O'sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ayollarini qui sifatida baholash, ayollarini nazir sifatida taqdim etish, ularni o'z erkidan, ilm-ma'rifatdan yiroq qilish holatlari ko'plab uchrab turishi jadid adabiyotida chinakam mavzuga aylandi.

Haqiqatan ham, ma'rifatparvarlarimiz o'z asarlarini organli ayollar ozodligi, erkinligi uchun kurash olib borishgani o'sha davr asarlaridan ko'zga tashlanib turadi. Bu esa hamma davrda ayollarga hurmat-e'tibor mavjud bo'lganligidan daloletdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2005.
3. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Navro'z, 2019.
4. Qodiriy A. Diyori Bakr. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.
5. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G'ulom nomidagi NMU, 2017.
6. Cho'lpone. Kecha va kunduz. – Toshkent: Navro'z, 2018.

Emina ACHILOVA,  
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
2-kurs magistranti

## O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKOYASIDA PSIXOLOGIK TASVIR

O'zbek adabiyotining taraqqiyotida, ayniqsa, prozachilik rivojida taniqli adib O'tkir Hoshimovning ham munosib hissasi bor. Uning yuzdan ortiq hikoy-

alar, o'nlab qissalari, millatimizning yaqin o'tmishi va bugungi hayotini bor murakkabliklari bilan tasvirlagan uchta roman niqaqat o'zbek kitobxonlari, balki ja-